

## ADABIYOT DARSLARIDA, O‘QUVCHILARNI BADIY ASAR O‘QISHGA BO‘LGAN QIZIQISHINI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

**Achilova Hadiyabonu Mansurovna**

Buxoro shahar 4-son I D U M nemis tili faniga ixtisoslashtirilgan davlat  
umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

[hadiyaachilova@gmail.com](mailto:hadiyaachilova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu metodik tavsiya – adabiyot darslarida, o‘quvchilarni badiiy asr o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada rivojlantirish, mustaqil fikrlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qo‘llaniladigan interfaol metodlar va qiziqarli topshiriqlardan iborat.

**Kalit so‘zlar:** “Dahshat”, “Mehrobdan chayon”, metodlar, interfaol, rolli o‘yin, tushunchalar tahlili, ikki qismli daftar.

Hozirgi kunda ilmiy-metodik tamoyillardan biri ta’lim jarayoni qatnashchilari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlashdan iborat. Ma’lumki, insondagi ezgu sifatlar jamoaga qo‘shilib faoliyatga kirishganda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Hayotda bo‘lgani kabi o‘qish jarayonida ham birgalikda qilingan faoliyat ko‘proq samara beradi. O‘quvchilarni guruh qilib o‘qitish tajribasi bejiz paydo bo‘lgan emas. Sinf - dars tizimi ham shundan kelib chiqqan. Yangi eraning 1-asridayoq Rim mutafakkiri Kvintillian: “O‘quvchilar bir-birlarini o‘qitganlarida, mustahkam va chuqur bilim egallashlari mumkin,”- deb ta’kidlagan edi.

Pedagogikadagi hamkorlik birgalikdagi ta’limni ko‘zda tutadi. Birgalikdagi ta’limni yo‘lga qo‘yishda o‘quv guruhi bir necha kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir kichik guruh a’zolari o‘ziga tegishli o‘quv muammosini to‘la hal etgunga qadar ishlaydi. Shunday yo‘sinda ish tashkil etilganda, ”Kemaga tushganning joni bir” naqliga amal qilinadi: yo guruhdagi barcha o‘quvchilar muammoni yechishga erishadi, yoxud ularning hammasi yomon baho oladi.

Birgalikdagi ta’limni amalga oshirishda o‘quvchilarni darhol kichik guruhlarga bo‘lib yuborgandan ko‘ra, ularni juft bo‘lib ishlashga odatlantirish maqsadga muvofiqdir. Juft bo‘lib ishlash keyinchalik kichik guruhlarga bo‘linib ishlash uchun o‘ziga xos tayyorgarlik bosqichi ham bo‘ladi. Buning bir necha sababi bor:

**Birinchi**dan, o‘quvchilar o‘tirgan joylaridan qo‘zgalmaganlari uchun mashg‘ulotdan chalg‘imaydilar;

**Ikkinchi**dan, hali ikki kishi bo‘lib bitta o‘quv muammosini yechib o‘rganmagan o‘quvchilarning birdaniga 6-7 kishilik kichik guruhlarda samarali ishlab ketishi qiyin;

**Uchinchi**dan, juftlikda ishlash asnosida o‘quvchilar birovning fikrini eshitishni ham, o‘zgaga fikr aytishni ham, mavjud manbalardan kerakli materiallarni qidirib topishni ham osonroq o‘rganadilar.

Ta’kidlash lozimki, juft bo‘lib ishlash ham osonlik bilan amalga oshmaydi. Sabr – toqat bilan har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan va uni kerakli o‘rinda hisobga ola bilgan o‘qituvchigina guruhni oldin juft bo‘lib, so‘ngra kichik guruhlarda samarali ishlashga o‘rgata oladi. Masalan, adabiyot darslarida juftlikda ishlashni o‘rgatish uchun bir partada o‘tiradigan har ikki o‘quvchiga bittadan kartochka tayyorlanadi. Har bir kartochkaning ikki tomonida erkin mavzuda yoziladigan bittadan insho nomi ( bu o‘qilgan badiiy asari mavzusi yuzasidan bo‘lishi kerak) va uni yozishda ko‘proq ishlatilishi mumkin bo‘lgan kalit so‘zlar beriladi. Guruhda nechta o‘quvchi bo‘lsa, shuncha insho mavzusi va shuncha kartochka tayyorlanadi. Har bir o‘quvchi faqat o‘ziga va partadoshiga tushgan kartochkadagi mavzu ustida ishlaydi. Ammo kartochkalardagi ikki mavzudan qaysi birini yozishni partadoshlarning o‘zlari hal qilishadi va bir partadagi ikki o‘quvchiga har ikki mavzu yuzasidan bir xil baho qo‘yiladi.

**Masalan**, 7-sinf adabiyot darslarida Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor ijodi o‘rganib bo‘lingandan so‘ng mavzularni mustahkamlash maqsadida tayyorlangan kartochkalarining bir tomoniga “Dahshat” hikoyasi va Abdulla Qahhor davridagi xotin-qizlar huquqi” hamda “Mehrobdan chayon” romani va uning Abdulla Qodiriy hayotidagi o‘xshashligi”. Har ikkala kartochkaning orqa tomoniga asar va hikoyalarning yozilish tarixi bilan bog‘liq 8-10 ta kalit so‘z va iboralar beriladi. Inshosini tog‘ri bajargan o‘quvchilar baholanib boriladi.

### “TUSHUNCHALAR TAHLILI” *metodi*

#### 1-KARTOCHKA

Abdulla Qahhor davridagi xotin-qizlar ahvoli  (kartochkaning old qismi)	“Dahshat” hikoyasi  ( kartochkaning orqa qismi)	
KALIT SO‘ZLAR: kamsitish, ozodlik, xo‘rluk, nohaqlik, davr zulmi, fikr erksizligi,	<table border="1" data-bbox="810 1832 1139 1917"> <tr> <td><b>KALIT SO‘ZLAR</b></td> </tr> </table> menga davlat kerak emas, 10 ta qo‘y. Nodirmohbegim, Unsin, “hamma o‘tirgan yerida, go‘yo bir qarich cho‘kkanday bo‘ldi”, berahmlik, maymun, Olimbek	<b>KALIT SO‘ZLAR</b>
<b>KALIT SO‘ZLAR</b>		

## 2-KARTOCHKA

“Mehrobdan chayon” asari	“Mehrobdan chayon” asari va Abdulla Qodiriy hatotidagi o‘xshashlik
Baxmalbofda faqir bir oila, yetimlik , Nodira, Solih Maxdum, Ra’no, Anvar, Nasim, to‘qqizinchi kun, ochko‘zlik, “Qush tilini, qush biladi”, Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari	Yetimlik, kamsitish, xo‘rlik, sog‘inch, davr zulmi, tuhmat, faqirlik, 5ta farzand, prikazchilik, ustachili, bog‘bonlik Jo‘rji Zaydon, Julqunboy

Bu usuldan foydalanish nafaqat, to‘rt muchasi sog‘lom o‘quvchilar uchun, balki ko‘zi ojizlarimiz, imkoyati cheklangan o‘quvchilarimiz uchun ham foydalidir. Chunki asarni o‘qiy olishmasa-da, asar va ularning audio variantlarini tinglab ham bemalol o‘z taassurotlarini yoza oladilar. Qolaversa, o‘quvchilarning imlo savodxonligini, nutq boyligini, oshiradi. Birgalikda, sheriklikda o‘qishga odatlantiradi, ularda jamoani his etish tuyg‘usini shakllantiradi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, videorolikda esa asardan parcha ham namoyish etiladi. O‘quvchilar tinglab, ko‘rib, o‘qib o‘z fikr-mulohazalarini bayon etishadi. Ana shu holda o‘quvchilarning qalbida kitobxonlikka bo‘lgan mehr –muhabbatni shakllantirish mumkin.

Zero, bugungi kunda yutboshimiz tomonidan yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus ishlab chiqildi. Biz qo‘llayotgan yangi interfaol metodlar ham yoshlar orasida kitobxonlikni va axborot texnologiyalaridan mazmunli foydalanishni o‘rgatadi.

O‘quvchilarning juftlikda ishlashini yo‘lga qo‘yishda foydalanish mumkin bo‘lgan usullardan yana biri “*ikki qismli daftar*” metodidir.

Har bir beti chiziq bilan ikki qismga bo‘lingan bu daftar mustaqil o‘qiladigan yoki o‘qib kelish uiyga vazifa sifatida berilgan matndagi muhim jihatlarni qayd etish uchun tutiladi. Daftarning chap qismida egasining, o‘ng qismida esa partadoshining qaydlari yoziladi. Ayni shunday daftar partadoshida ham bo‘ladi va shunday yozuvlar unda ham aks etadi. Bu yozuvlar o‘quvchilarni o‘ziga o‘zganing nazari bilan qarashga odatlantiradi Ayni vaqtda, muayyan matndagi ba’zi jihatlarni nima uchun nazardan qochirgani haqida o‘ylashga o‘rgatadi.

**“IKKI QISMLI DAFTAR” metodi.**

<i>Asardagi ijobiy qahramonlarning ichki olami va bugungi davr</i>	<i>Asardagi salbiy qahramonlarning ichki olami va bugungi davr</i>
<p><i>Masalan, “Mehrobdan chayon” romanidagi qahramonlar: Anvar, Ra’no, Nigor oyim, Nodira</i></p> <p><i>Ichki olami: go‘zal, beozor, soda, mehribon</i></p> <p>Bugungi davr: Har bir inson shaxsiy firiga, so‘z erkinligiga va yashash huquqiga eradir. Bir –birini kamsitish, haqoratlash mimkin emas . Yetim-yesirlar davlat himoyasidadir va ular uchun barcha sharoit, imkoniyatlar yaratilgan.</p>	<p><i>Solih Maxdum, Xudoyor, Abdurahmon</i></p> <p><i>baxil, xudbin, manfaatparast, kibrli, qanoatsiz, ziqna</i></p> <p>Harakatlar strategiyasining ikkinchi bo‘limida sud-huquq tizimini yanada isloh qilish haqida aytib o‘tilgan.</p> <p>Taqriz:.....</p>

Bu metodda o‘quvchi bir-birini o‘zi taqriz yozgan holda baholaydi. Xotira mustahkamlanadi va ona tili fanidan olgan bilimlari, imlo savodxonligi, nutqiy boyligi, dunyoqarashi, milliy va umummadaniy qadriyatlarimiz bilan bugungi zamonaviy axborot asri farqlanadi.

Yana bir metodlardan biri “ROLLI O‘YIN METODI” doimiy kichik guruhdagi har bir a‘zoning roli va ular qiladigan ishlar ko‘lamini quyidagicha jadvalda aks ettirsa bo‘ladi. Bunda baholash mezoni har bir pog‘onadagi shartlar uchun o‘quvchilar ballar to‘plab borishlari kerak bo‘ladi . Ya’ni AUKSION e‘lon qilinadi. Auksionda yutgan guruhga esa o‘sha badiiy asarning audio varianti, elektron varianti hamda kitobi taqdim etiladi. Bu *usuldan besh tamoyildan biri bo‘lmish drama yo‘nalishini va o‘quvchilarni* sahna asariga bo‘lgan qiziqishini yanada rivojlantirish maqsadida foydalansa bo‘ladi.

**“ROLLI O‘YIN” metodi**

<b>ROLLAR</b>	<b>QILINADIGAN ISHLAR</b>	<b>BALLAR</b>
Bilimdon Learned Знающий	O‘rganilayotgan matndan badiiy asar mohiyati va qahramon tabiati aks etgan kalit so‘zlarni topadi va tanlaydi.	10 ball
Tergovchi Investigator Следователь	Asar bosh qahramoni va yetakchi obrazlarning xatti-harakatlari va o‘ylarini turli chizma, sxema, jadvallar vositasida ko‘rsatmali aks ettiradi.	20 ball
Arxeolog Archaeologist Археолог	Kalit so‘zlar va chizmalarga tayanib bosh qahramonning psixologik portretini yaratadi va uning xatti-harakatlari sababini aniqlaydi.	25 ball
Aloqachi Signal men СВЯЗИСТ	Badiiy matn bilan hayot orasidagi aloqani topadi, adabiy qahramonni bugunning nazari bilan baholaydi.	15 ball
Zargar Goldsmith Ювелир мастер	Asarning o‘qishligini ta’minlagan faqat shu asarda uchraydigan noyob so‘z, birikma va ifodalarni topadi va guruh a’zolari e’tiboriga havola qiladi.	30 ball
Bezakchi Decoration Украшенист	Bosh qahramon va yetakchi timsollarning xatti-harakatlari, asar voqealari kechgan sharoitni aks ettiruvchi rasmlar chizadi.	35 ball
Elchi Ambassador Посол	Vaqtini nazorat qiladi, guruhda material to‘plash va muhokama qanday borayotganini kuzatadi. Guruh nomidan chiqish tayyorlaydi .	40 ball

Kichik guruhlarga bo‘linib birgalikda topilgan kalit so‘zlar, yaratilgan psixologik potretlar, taxmin qilingan mantiqiy asoslardan qaysi birini taqdimot jarayonida olib chiqish kerakligini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun kichik guruh ichida sog‘lom va to‘la tenglikka asoslangan muhit shakllantirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kasb usullar tizimli tafakkur yuritishni, u esa tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, bu o‘z navbatida, birgalikdagi ta’limni, har bir o‘quvchidan ijodiy fikr yuritishni, matematik savodxonlikni, chet tillarini mukammal bilishni talab etadi. Shu tariqa o‘quvchilar o‘zlarini o‘zlari o‘qitadigan darajaga yetadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Abdulla Qoduriy “Mehrobdan chayon”.
2. Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyasi.